



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNING NUTQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Zulfiya Mamarajabova**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, professor

**Gulirano Aliqulova**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, magistr

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonining ilmiy-nazariy asoslari hamda pedagogik xususiyatlari yoritiladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutqni idrok etish, uni tushunish va ifodalash jarayonlarida yuzaga keladigan o‘ziga xos qiyinchiliklar tahlil qilinadi hamda bu holatlarning ularning kommunikativ kompetensiyasiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada zaif eshituvchi va kar bolalarning leksik, grammatik va fonetik nutq rivojlanishidagi cheklanishlar, so‘z boyligining kambag‘alligi, talaffuz buzilishlari hamda grammatik strukturalarni noto‘g‘ri qo‘llash holatlari ilmiy manbalar asosida asoslab beriladi. Nutqiy madaniyatni shakllantirishda dialogik nutq, didaktik o‘yinlar, mashqlar, jonli muloqot va innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Maqolada shuningdek, eshitish nuqsoniga ega bolalarning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ rivojlanishida nutqiy muhit, pedagogik shart-sharoitlar hamda sinfdan tashqari faoliyatning roli yoritiladi. Internat sharoitida shaxslararo va rolli muloqot shakllarining nutqni rivojlantirishdagi o‘rni ham ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik shart-sharoitlar, eshitishda nuqsoni mavjud bolalar, so‘zlashuv nutqi, mashqlar, dialogik nutq, suhbatlar, didaktik o‘yinlar, jonli muloqot, innovatsion texnologiyalar, og‘zaki muloqot, surdopedagogika.

## **ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА**

**Зульфия Мамараджабова**

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, профессор

**Гулирано Алиқўлова**

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, магистрантка

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы и педагогические особенности процесса развития речевой культуры у детей с нарушениями слуха. Анализируются специфические трудности, возникающие в процессах восприятия, понимания и выражения речи у детей с нарушениями слуха, и рассматривается влияние этих условий на их коммуникативную компетентность. В статье также обосновываются ограничения в развитии лексической, грамматической и фонетической речи у детей с нарушениями слуха и глухотой, скудный словарный запас, нарушения произношения и неправильное использование грамматических структур на основе научных источников. Подчеркивается важность диалогической речи, дидактических игр, упражнений, живого общения и инновационных педагогических технологий в формировании речевой культуры. В статье также освещается роль речевой среды, педагогических условий и внеклассной деятельности в социальной адаптации и коммуникативном развитии детей с нарушениями слуха. Научно обосновывается также роль межличностных и ролевых форм общения в развитии речи в интернатах.

**Ключевые слова:** педагогические условия, дети с нарушениями слуха, разговорная речь, упражнения, диалогическая речь, беседы, дидактические игры, живое общение, инновационные технологии, устное общение, сурдопедагогика.

## **SPECIFIC FEATURES OF DEVELOPING SPEECH CULTURE IN CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS**

**Zulfiya Mamarajabova**

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Professor

**Gulirano Aliqulova**

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Master’s student

### **Abstract**

This article covers the scientific and theoretical foundations and pedagogical features of the process of developing speech culture in children with hearing impairments. The specific difficulties that arise in the processes of perception, understanding and expression of speech in children with hearing impairments are analyzed and the impact of these conditions on their communicative competence is considered. The article also substantiates the limitations in the development of lexical, grammatical and phonetic speech of hearing-impaired and deaf children, poor vocabulary, pronunciation disorders and incorrect use of grammatical structures based on scientific sources. The importance of dialogical speech, didactic games, exercises, live communication and innovative pedagogical technologies in the formation of speech culture is emphasized. The article also highlights the role of the speech environment, pedagogical conditions and extracurricular activities in the social adaptation and communicative development of children with hearing impairments. The role of interpersonal and role-playing forms of communication in the development of speech in boarding schools is also scientifically substantiated.

**Keywords:** pedagogical conditions, hearing-impaired children, colloquial speech, exercises, dialogic speech, conversations, didactic games, live communication, innovative technologies, oral communication, surdopedagogy

Bugungi globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan davrda shaxsning nutqiy madaniyati uning ijtimoiylashuvi, ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati hamda jamiyat bilan samarali muloqotga kirishishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun nutqiy madaniyatni shakllantirish masalasi nafaqat pedagogik, balki psixologik va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Chunki eshituv analizatoridagi buzilishlar bolaning nutqni eshitib qabul qilishi, tushunishi va uni og'zaki shaklda ifodalash jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada lug'at boyligining cheklanishi, talaffuzdagi nuqsonlar, grammatik tuzilmalarning buzilishi hamda kommunikativ faoliyatdagi qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari ularning atrofdegilar bilan muloqot jarayonida turli to'siqlarga duch kelishiga sabab bo'ladi. Nutqiy muloqotning yetarli darajada shakllanmaganligi bolaning ijtimoiy moslashuvi, jamoaga kirishishi va shaxs sifatida rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Shu bois zamonaviy surdopedagogikada zaif eshituvchi va kar bolalarning nutqiy madaniyatini rivojlantirish, ularda og'zaki va dialogik nutq ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Ilmiy tadqiqotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishidagi kamchiliklar ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, R.M. Boskis, L.G. Paramonova, A.G. Zikeyev, Ye.G. Rechitskaya, K.V. Komarova kabi tadqiqotchilar ushbu bolalarda nutqning fonetik, leksik va grammatik jihatlarida kuzatiladigan o'ziga xos buzilishlarni tahlil qilganlar. Ularning ilmiy qarashlarida eshituvning pasayishi natijasida nutqiy tajribaning cheklanishi, og'zaki nutqni to'liq idrok etmaslik va muloqot ehtiyojining sust rivojlanishi asosiy omillar sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Nutqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonida maxsus tashkil etilgan pedagogik shart-sharoitlar, didaktik o'yinlar, suhbatlar, dialogik mashqlar, jonli muloqot hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tabiiy kommunikativ vaziyatlar yaratish, o'quvchilarni faol nutqiy muloqotga jalb etish hamda ularning lug'at boyligini muntazam kengaytirib borish nutqiy rivojlanish samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, sinfdan tashqari faoliyat, ekskursiyalar, to'garaklar va jamoaviy tadbirlar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda erkin muloqot qilish, o'z fikrini ifodalash va nutqiy madaniyat elementlarini egallash uchun qulay muhit yaratadi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqiy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari ular tomonidan nutqni idrok etish va ifodalash bilan bog'liq muammolarga olib keladi. Bu bolalarning ayrim nutqiy xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Muvaffaqiyatli aloqa uchun suhbatdoshning aniq va tushunarli nutqiy ifodasi muhim ahamiyatga ega.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning talaffuz muammolarini tadqiqotchilar I.G. Bagrova, K.A. Volkova, Ye.P. Kuzmichova, F.F. Rau, N.F. Slezina, Ye.Z. Yaxnina o'rganib, bu bolalarning talaffuz qobiliyatlari qator farqli xususiyatlarga ega ekanligini qayd etishgan [2].

Bunday bolalarda turli xil ovoz buzilishlari kuzatiladi: ovoznining sekin, zaif, baqiroq, juda baland yoki juda past, bo'g'iq yoki burunli, xirillagan bo'lishi va hokazo. So'zlarda ko'pincha bir tovush boshqasi

bilan almashtiriladi, soʻz boshidagi yoki oxiridagi tovush tushib qoladi; ayrim soʻzlarda faqat bir boʻgʻin saqlanib qoladi. Bunday vaziyat kar yoki zaif eshituvchi bolaning nutqni idrok etishiga taʼsir qiladi va uning sogʻlom eshituvchilar bilan muloqotini qiyinlashtiradi.

Kommunikatsiya jarayonini tavsiflashda suhbatdoshning lugʻat boyligi xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ayrim kar va zaif eshituvchi bolalarning ilk nutqiy rivojlanish bosqichida lugʻat boyligi chegaralangan boʻladi. Ular hatto eng koʻp ishlatiladigan predmetlar, harakatlar va belgilarni ham nomlay olmaydi, koʻpincha soʻzni uning maʼnosi bilan bogʻlay olmaydi.

R.M. Boskis bunday bolalar nutqiga xos almashtirishlarni farqlaydi: bir predmet nomi oʻrniga unga xos boʻlgan belgini keltirish, masalan, “kurtka” oʻrniga “issiq”; butun predmet nomi oʻrniga uning biror qismini nomlash; bir predmet oʻrniga unga vaziyatan bogʻliq boʻlgan predmetni nomlash; faoliyatiga koʻra oʻxshash predmetni nomlash; shu predmet bilan bogʻliq faoliyatni nomlash, masalan, “suv” oʻrniga “ichmoq”.

R.M. Boskis fikricha, eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar nutqi uchun bir soʻzni talaffuzi va yozilishiga koʻra oʻxshash, ammo umuman boshqa maʼno beradigan soʻz bilan almashtirish ham xosdir. Masalan: “konsert” — “konvert”, “past” — “post”. Zaif eshituvchi bolaning nutqni eshitish orqali toʻliq idrok eta olmasligi bilan bogʻliq ravishda nutqiy malakalarining chegaralanganligi lugʻat boyligining kambagʻallashuviga va bu soʻzlarning oʻziga xos tarzda qoʻllanilishiga olib keladi.

Kar va zaif eshituvchi suhbatdoshlar lugʻatining bunday xususiyatlari ularning eshituvchilar bilan aloqasiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Zaif eshituvchi bolalar nutqi uchun grammatik qurilishdagi jiddiy buzilishlar ham xos. Ularning ogʻzaki bayoni koʻpincha kontekstdan tashqarida boʻladi, tushunarsiz va tasodifiy quriladi. Ularni har doim ham soʻz yoki gap deb boʻlmaydi [3]. K.V. Komarova, I.L. Shapoval tadqiqotlari bu toifa bolalarning nutqi alohida buzilgan tovush tarkibidagi soʻzlar yoki soʻz birikmalaridan, oʻziga xos tarzda tuzilgan gaplardan iborat boʻlib, ularda gap boʻlaklarini eslatuvchi tartibi buzilgan alohida komponentlarga kuzatilishini koʻrsatadi [5]. Qator holatlarda bu gaplarda mantiqan boʻlishi kerak boʻlgan komponentlar aniqlanmaydi.

#### **Tadqiqot natijalari va muhokama**

Gaplarda sifat, ravish, olmosh va qoʻshimchalarning yoʻqligi, ularning oʻz funksiyalariga xos boʻlmagan tarzda qoʻllanilishi kuzatiladi. Koʻpincha gap boʻlaklarining yozuvda notoʻgʻri qoʻllanilishi zaif eshituvchi bola nutqining suhbatdoshi tomonidan tushunilishini qiyinlashtiradi.

L.G. Paramonovanning tadqiqotlari yuqorida bayon etilgan fikrlarni tasdiqlaydi. Uning ishida “yetakchi nutqiy analizatorlardan birining meʼyorda ishlashidagi buzilish bolalarning nutqiy rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi”, deb qayd etiladi [5]. Olimning fikricha, eshitishda nuqsoni boʻlgan bolaning ijtimoiylashuvi va taʼlimi uchun eshituvni yoʻqotish darajasi emas, balki bolaning nutqiy holati koʻproq ahamiyatga ega. Chunki bir xil darajadagi eshituv buzilishida ham nutqiy muloqot turlicha boʻlishi mumkin.

L.G. Paramonovanning fikricha, bunga quyidagilar sabab boʻlishi mumkin: birinchidan, nutqiy muloqotning aniq vaziyatini hisobga olish; bunda zaif eshituvchi bola suhbatdoshi aynan qaysi soʻzni qoʻllaganini oldingi va keyingi soʻzli axborotlardan kelib chiqib topadi yoki taxmin qiladi. Ikkinchidan, qoʻshni soʻzlarning maʼnosini hisobga olish; zaif eshituvchi bola eshituv orqali ayrim soʻzlarni farqlay olmasa-da, ularni soʻz birikmalari tarkibida xatosiz tushunishi mumkin. Uchinchidan, qoʻshni soʻzlarning grammatik tuzilishini hisobga olish; bunda soʻzning maʼnosini tushunishda oldingi yoki keyingi soʻzning grammatik shakli asos boʻladi. Toʻrtinchidan, soʻz maʼnosini tushunishda hal qiluvchi rol oʻynaydigan tovushlar artikulyatsiyasini koʻrib idrok etishga tayanish. L.G. Paramonova fikricha, bunday “tushunish” usullaridan koʻpincha eshitadigan odamlar ham foydalanadi. Zaif eshituvchilar esa har doim “qiyin idrok etilish” deb nomlanadigan vaziyatda boʻladi.

L.G. Paramonova zaif eshituvchi bolalarning ogʻzaki muloqoti uchun nutqning leksik-grammatik tomoni muhim deb hisoblaydi. U bu toifa bolalarning lugʻat boyligiga xos xususiyatlarni koʻrsatadi: soʻz boyligining kambagʻalligi, qoʻshimchalarning buzilishi, undosh tovushlarning tushirib qoldirilishi va hokazo. L.G. Paramonovanning fikricha, zaif eshituvchi bolalar nutqining grammatik tomoni ham qoʻpol buzilgan boʻladi. Ular soʻzlarni kelishik qoʻshimchalariga, shuningdek, shaxs-son shakllariga moslay olmaydi. Bu esa ogʻir, qiyin bartaraf etiladigan agrammatizmlarga olib keladi. Iboraviy nutq oʻz-oʻzidan shakllanmaydi, bolalar faqat oʻzaro grammatik bogʻlanmagan soʻzlar yigʻindisiga ega boʻladilar. Zaif eshituvchilarning talaffuzi ham buzilgan boʻladi. Koʻpgina nutqiy tovushlarni eshitmasdan yoki idrok etmasdan, zaif eshituvchi bolalar ularga toʻgʻri taqlid qila olmaydi.

L.G. Paramonova zaif eshituvchi oʻquvchilarning 95 foizida tovushlar talaffuzida nuqsonlar

kuzatilishini, hatto yuqori sinflarda ham tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar saqlanib qolishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bunday vaziyat zaif eshituvchi bolalarning kommunikativ aloqalari rivojlanishida o'z aksini topadi. A.S. Pogrebenniy tadqiqotlarida kar va zaif eshituvchilarga xos bo'lgan nutqning qo'pol rivojlanmaganligi hamda tilning morfologik tizimida so'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi aniqlangan.

Birinchi sinf o'quvchilari uchun qo'shimchalar bilan ifodalangan so'zlarning mazmunini tushunish katta qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun zaif eshituvchi o'quvchilar muloqot uchun muhim bo'lgan so'z elementlarini qo'llamaydi yoki noto'g'ri tushunadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda dialogik nutqni shakllantirish, eng avvalo, nutq o'stirish darslarida turli mazmunli munosabatlarni aks ettiruvchi sintaktik qurilmalarni o'zlashtirish hamda turli mavzularda suhbatlashish jarayonida amalga oshiriladi.

O'quvchilar tomonidan dialog tuzilishi va javoblarni o'zlashtirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: qo'zg'atuvchi gap — darak gap — dialog. Masalan: 1) Doskani latta bilan art. 2) Kolya doskani latta bilan artyapti. 3) Kolya doskani nima bilan artyapti? — Latta bilan. Zaif eshituvchi bolalar uchun qisqa javob berish oson emas.

A.G. Zikeyev qisqa javob berishdan avval o'quvchi imkon qadar to'liq javob bera olishi kerak, deb hisoblaydi. Zaif eshituvchi o'quvchilar tomonidan nutq o'stirish darslarida dialogik birlik shakllarini egallash dialoglarni yodlash yo'li bilan emas, balki asta-sekin turli kommunikativ munosabatlar va aloqalarni aks ettirish hamda o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunga turli mashqlar yordam beradi. Masalan, namuna asosida o'xshash dialoglar tuzish, dialoglarni javoblar bilan to'ldirish, bir nechta javoblar ichidan mos javoblarni topish, dialogda tushirib qoldirilgan javoblar va gaplarni aniqlash, berilgan vaziyatga mos dialog tuzish va hokazo.

Dastur talablariga ko'ra, boshlang'ich bo'g'indagi katta sinf zaif eshituvchi o'quvchilarida tasavvurdagi vaziyat bo'yicha dialog tuzish malakalari rivojlantiriladi. O'qituvchi qandaydir syujetning boshlanishini aytadi, o'quvchi esa dialog tuzishi kerak. Masalan: "Sen do'konga kelding. Sen salat uchun mahsulotlar sotib olishing kerak. Sotuvchidan nima so'raysan?" Bu mashqlar bolalar tomonidan o'zlashtirilgan nutqiy material asosida bajariladi.

Zaif eshituvchi o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish dars boshida o'tkaziladigan "nutqiy" mashqlarda katta o'rin egallaydi. Bu suhbatlarda o'quvchilar ob-havo, sana, hafta kuni haqida, kattaroq sinflarda esa qiziqishlari va maktab hayoti haqida qisqacha ma'lumot beradi. Dialogik nutqni shakllantirish bo'yicha bu ishlarning diqqatga sazovorligi shundaki, bevosita muloqot kundalik hayotdagi haqiqiy vaziyatlar asosida paydo bo'ladi, zaif eshituvchi o'quvchilarning nutqi esa kommunikativ maqsadlarda qo'llaniladi.

Sinfdan tashqari ishlar bolalarning ijtimoiy malakalarni o'zlashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Bu, asosan, eshitish nuqsoniga ega bo'lganligi oqibatida ijtimoiy malakalari chegaralangan bolalar uchun juda muhimdir.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning kundalik hayotini tashkil etish va korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni sinfdan tashqari faoliyatlarda olib borish qator olimlar ishlarida ko'rib chiqilgan: A.G. Zikeyev, T.S. Zikova, M.I. Nikitina, L.V. Nikulina, L.G. Paramonova, G.N. Penin, Ye.G. Rechitskaya, E.N. Xoteyeva va boshqalar. Bu tadqiqotchilarning ishlarida sinfdan tashqari vaqtda ishlash zaif eshituvchi o'quvchilarning dialogik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning nutqini rivojlantirish va muloqot doirasini kengaytirish uchun ijobiy sharoit yaratishi ta'kidlanadi.

Zaif eshituvchi tarbiyalanuvchilarning internatdagi kundalik hayotiy faoliyatining muhim doirasi ko'pincha predmetli-amaliy faoliyatdagi muloqot, turli vositalar — og'zaki, daktil, imo-ishora — orqali amalga oshiriladigan kommunikativ faoliyat hisoblanadi. Muloqot orqali o'quvchilar ijtimoiy me'yorlar va atrofdagilar bilan munosabatga kirishish madaniyatini o'zlashtiradi. Unda o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini baholash amalga oshiriladi.

Surdopedagogik adabiyotlarda internatdagi eshitishi buzilgan tarbiyalanuvchilar bilan muloqot ikkita asosiy turda amalga oshirilishi qayd etiladi: shaxslararo (erkin) va rollararo (ish) muloqot.

Rollararo muloqotga tarbiyalanuvchilar o'yin, ish, o'quv-bilish faoliyatida, yaratilgan sharoitda mo'ljal olib, faol harakat bilan ongli ravishda kirishadi. Shaxslararo muloqot esa vaziyatdan tashqarida, shaxsiy va hissiy asosda quriladi hamda bolalarning do'stlikka, o'zaro tushunishga, qo'llab-quvvatlanishga va tan olinishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi.

Ye.G. Rechitskaya, K.I. Tudjanovlar tadqiqotlarida zaif eshituvchi o'quvchilarning internatda tengdoshlari, katta va kichik tarbiyalanuvchilar bilan shaxslararo muloqoti imo-ishorali nutq, o'qituvchi va tarbiyachilar bilan esa og'zaki nutq orqali amalga oshirilishi ta'kidlanadi. Bunday holatda zaif eshituvchi

tarbiyalanuvchilar tomonidan har qanday vaziyatda ogʻzaki nutq yordamida erkin muloqot olib borish uzoq muddatli pedagogik taʼsir natijasida va ularda ogʻzaki muloqot malakasi boyitilganda amalga oshiriladi.

Zamonaviy surdopedagogika zaif eshituvchi bolalar uchun moʻljallangan internat tarbiyachilari oldiga ularning nutqini rivojlantirish boʻyicha qator vazifalarni qoʻyadi. Ular ichidan asosiylarini sanab oʻtamiz: zaif eshituvchi tarbiyalanuvchilarni eshituvchilar oʻrtasida qabul qilingan nutqiy muloqot meʼyorlariga oʻrgatish; jamoaning har qanday aʼzosi, eshitadigan tengdoshlari bilan dialog olib borish koʻnikmalarini shakllantirish; muloqatchanlikni rivojlantirish va muloqotdan qoʻrqishni bartaraf etish; kattalar, tengdoshlar, shuningdek, eshitadigan odamlar bilan muloqot ehtiyojini shakllantirish.

Nutqiy muloqotni shakllantirishga tarbiyalanuvchilar turli yosh guruhlarida, kattalar bilan doimiy ogʻzaki muloqot ehtiyoji tugʻilganida, oʻz tengdoshlari, eshitadigan begona odamlar bilan birgalikda ishtirok etadigan turli faoliyat turlarini tashkil etish orqali erishiladi. Buning uchun keng koʻlamli va davomiy umummaktab ishlari, mehnat aksiyalari, turli klublar va toʻgaraklarda ishtirok etish, jamoat ishlarini bajarish tavsiya etiladi.

Zaif eshituvchi oʻquvchilarning nutqiy madaniyatini shakllantirish uchun ekskursiya, oʻyin faoliyati, predmetli-amaliy faoliyatdan foydalaniladigan toʻgarak ishlarida ishtirok etish keng imkoniyat yaratadi. Oʻquvchilarda lugʻat boyligining ortishi, ayrim soʻz va iboralar talaffuzi hamda maʼnosining aniqlashtirilishi amalga oshadi. Grammatik qurilmalar, shuningdek, norasmiy muloqot uchun xos boʻlgan mustaqillik, topqirlik, qiziquvchanlik va gʻayratlilik kabi kommunikativ sifatlar rivojlanadi.

### **Xulosa**

Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning nutqiy madaniyatini rivojlantirish murakkab va koʻp qirrali pedagogik jarayon boʻlib, u bolaning eshituv imkoniyatlari, nutqiy tajribasi, ijtimoiy muhiti hamda tashkil etilgan taʼlimiy sharoitlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Eshituvdagi buzilishlar natijasida yuzaga keladigan fonetik, leksik va grammatik kamchiliklar bolalarning ogʻzaki muloqotiga salbiy taʼsir koʻrsatadi hamda ularning kommunikativ faoliyatida turli qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Shu sababli nutqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida faqat talaffuzni tuzatish emas, balki bolalarning muloqotga kirishish ehtiyojini rivojlantirish, lugʻat boyligini kengaytirish va nutqiy faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqiy madaniyatni rivojlantirishda dialogik nutq, didaktik oʻyinlar, suhbatlar, mashqlar, jonli muloqot hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar samarali vosita sifatida namoyon boʻladi.

Ayniqsa, tabiiy kommunikativ vaziyatlar yaratish va bolalarni faol nutqiy muhitga jalb etish ularning ogʻzaki nutq koʻnikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bunday faoliyatlar orqali oʻquvchilarda mustaqil fikrlash, oʻz fikrini aniq ifodalash, suhbatdosh nutqini tushunish hamda muloqot madaniyatiga rioya qilish malakalari rivojlanadi. Sinf dan tashqari ishlar, internat sharoitidagi jamoaviy faoliyatlar, ekskursiyalar, toʻgaraklar va rolli oʻyinlar eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning ijtimoiylashuvi hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Bunday faoliyatlar bolalarning tengdoshlari va kattalar bilan erkin muloqot qilishiga, nutqiy tajribasining boyishiga hamda jamiyatda qabul qilingan nutqiy meʼyorlarni egallashiga xizmat qiladi. Shuningdek, surdopedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan tizimli korreksion-rivojlantiruvchi ishlar bolalarda nutqiy nuqsonlarni kamaytirish, ogʻzaki nutqdan faol foydalanish va kommunikativ qoʻrquvni bartaraf etishga imkon yaratadi. Pedagog, tarbiyachi va ota-onalarning hamkorligi asosida yaratilgan qulay nutqiy muhit esa eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va nutqiy madaniyatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Mamarajabova Z.N. Adabiy taʼlim jarayonida zaif eshituvchi oʻquvchilar nutqini rivojlantirish: pedagogika fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. — Toshkent: TDPU, 2020. — 74 b.
2. Snoddon K. American Sign Language and Early Literacy. — Washington: Gallaudet University Press, 2012. — 52 p.
3. Moʻminova L., Amirsaidova Sh. va boshq. Maxsus psixologiya. — Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2013. — 312 b.
4. Poʻlatova P., Nurmuxamedova L., Amirsaidova Sh. Maxsus pedagogika. — Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2014. — 384 b.
5. Qodirova F.U. Boshlangʻich sinf kar oʻquvchilar nutqini shakllantirish: pedagogika fanlari nomzodi diss. avtoref. — Toshkent: TDPU, 2006. — 24 b.
6. Fayziyeva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod oʻrgatish: pedagogika fanlari nomzodi diss. avtoref. — Toshkent: TDPI, 1994. — 22 b.